

**SHERZOD O'KTAM O'G'LI
NOSIROV**



BUKHARA STATE
UNIVERSITY

**ILLUMINATION OF ISSUES OF THE HISTORY OF
TURKESTAN IN THE WORKS OF THE HISTORIAN
POLAT SOLIEV**

**ОСВЕЩЕНИЕ ВОПРОСОВ ИСТОРИИ ТУРКЕСТАНА
В ТРУДАХ ИСТОРИКА ПУЛАТА СОЛИЕВА**

**TARIXCHI OLIM PO'LAT SOLIEV IJODIDA
TURKISTON TARIXI MASALALARINING
YORITILISHI**

Abstract: In this article, the views of the historian Polat Soliyev on the economic processes in the history of Turkestan, the economic contradictions that arose as a result of the struggle of the peoples, and how these contradictions changed after the invasion of the Russian Empire were analyzed through the works of the scientist

Key words: irrigated agriculture, settled population, nomads, Uzbek, Turkmen, Kyrgyz, capital, Turkestan, religion, natural goods, industry, factory, competition

Аннотация: В данной статье изложены взгляды историка Полата Солиева на экономические процессы в истории Туркестана, экономические противоречия, возникшие в результате борьбы народов, и то, как эти противоречия изменились после нашествия Российской империи были проанализированы в работах ученого.

Ключевые слова: орошаемое земледелие, оседлое население, кочевники, узбеки, туркмены, киргизы, капитал, Туркестан, религия, натуральные товары, промышленность, фабрика, конкуренция.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixchi olim Po'lat Soliyevning Turkiston tarixidagi iqtisodiy jarayonlar borasidagi qarashlari, xalqlarning kurashi natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy qarama-qarshiliklar va bu qarama-qarshiliklarning Rossiya imperiyasi bosqinidan keyin qay tariqa o'zgarganligi olimning asarlari orqali tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: sug'orma dehqonchilik, o'troq aholi, ko'chmanchilar, o'zbek, turkman, qirg'iz, kapital, Turkiston, din, tabiiy tovar, sanoat, fabrika, raqobat

KIRISH (INTRODUCTION)

Bugungi kunga kelib tarix fanida Vatan tarixining dolzarb muammolarini tadqiq etishga tamomila yangicha uslublar bilan yondoshish davri boshlandi. Bu davrning asosiy xususiyati ilgari tadqiq etilgan tarixiy voqealar mohiyatini mutlaqo yangicha mushohada etish bilan ta'riflanadi. Zero zamonamiz tarixchilari olimlarga o'tmish haqidagi haqiqatni aniqlashdek ma'suliyatli va muhim

Copyright © Author(s). This article is published under the Creative Commons Attribution (CC BY 4.0) licenses. Anyone may reproduce, distribute, translate and create derivative works of this article (for both commercial and non-commercial purposes), subject to full attribution to the original publication and authors. The full terms of this license may be seen at <https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/legalcode>

vazifani tazyiq va nazoratlarsiz, xolisona, "mumkin" yoxud "mumkin emas" degan cheklashlarsiz bajarish imkonini yaratdi. Po'lat Soliev o'tgan asrda O'zbekistonda tarix fani sohasida birinchi bo'lib fan doktori, professor unvoniga sazovor bo'lgan, O'zbekiston va O'rta Osiyo xalqlarining tarixini ilmiy asosda o'rganish maktabini yaratgan fidokor insondir.

Ibrohim Mo'minov, Yahyo G'ulomov, Rashid Nabiev kabi mashhur tarixchi olimlar shu maktabda voyaga yetgan. Atoqli o'zbek shoiri Hamid Olimjon shu olimdan Samarqand Davlat Universitetida saboq olgan. Professor Po'lat Soliev XX asrning dastlabki o'ttiz yilligi mobaynida Fayzulla Xo'jaev, Abdurauf Firrat, Sadridin Ayniy, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Xodi Fayziy kabi yirik davlat va jamoat arboblari, fan va majaniyat namoyondalari bilan ham fikr, hammaslak bo'lgan. Ular P.Solievga yangi milliy tarixnavisligimizning qaldirg'och, fundamental asarlarini yaratgan olim sifatida katta hurmat-ehtirom bilan qaraganlar. Tarixshunos olim Po'lat Soliev O'zbekiston va O'rta Osiyo xalqlari tarixiga doir qimmatli manbalarni ham to'plagan. Ularni asosiy qismi hozirgi kunda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar zaxirasida va kutubxonasida saqlanmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Arablar istilosidan keyin mahalliy davlatlarning vujudga kelishi, ular davrida ta'lim, ilm-fan va me'morchilikning rivojlanishi bilan bog'liq masalalar dolzarb bo'lganligi sababli qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mavzuga doir adabiyotlarni quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Sovet davrida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar.
3. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda nashr etilgan tadqiqotlar.
4. Xorijda yaratilgan tadqiqotlar.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Qadim zamonlardan Turkistonning janubiy qismi, Farg'ona vodiysi, Amudaryoning quyi oqimida sug'orma dehqonchilik yaxshi rivojlangan. Bu yerda yashagan xalqlarning iqtisodiy tayanchi ayni sug'orma dehqonchilik hisoblangan. Ko'p yillar davomida ushbu hududlar hujumlar natijasida qo'ldan qo'lga o'tib kelgan. Bir tomondan ko'chmanchilar va o'troq aholi urushlar orqali bu hudud uchun kurashgan bo'lsalar, ikkinchi tomondan bir hududda yashab kelgan bir nechta xalq vakillari o'rtasida ushbu yerlar uchun kurash azaldan mavjud bo'lgan. Ushbu omillar yuqorida keltirilgan hududlarda iqtisodiy muammolarni keltirib chiqargan. Ushbu tarixiy voqeliklarni izchillik bilan o'rganib chiqqan olim, o'zbek tarixchilarining ustozlari birinchi tarixi fanlari doktori Po'lat (Bekbulat) Majidovich Soliyev (1882-1938) ushbu zamin uchun kurashlar va ularning oqibatlarini, bu zaminda yashagan xalqlarning taqdiri va iqtisodiy kechmishlarini o'zining "O'zbekiston ham Tojikiston" (arab imlosida o'zbek tilida) kitobida tarixan tahlil qilib beradi.

Uning tahlillarida ayniqsa, Rossiya imperiyasining Turkistonga kirib kelishi arafasidagi Turkistondagi iqtisodiy ahvol, xalqning xo'jalik turmushi past ekanligidan faqatgina din asosiy omil bo'lib xizmat qilgan davr undan so'ng Rossiya imperiyasining Turkiston iqtisodiyotida bo'lgan

o'zgarishlarga ta'siri xususida bo'ladi. Rossiya imperiyasi kirib kelgunga qadar bo'lgan iqtisodiy jarayonlarni olim quyidagicha ta'riflaydi. "Ko'pincha ariq va suv bo'ylariga millat hokimi bo'lg'onlar o'ltirg'onlar boshqalar esa uning oyoq tomoniga haydalg'onlar, yoki butunlay ikkinchi yoqqa surilg'onlar. Shuning uchun o'zbek-turkman, o'zbek-tojik kabi millatlar orasida bir-birlariga dushmanlik payida bo'lg'on. Xorazmda, o'zbek-turkman janjallarining asl sabablari mana shu suv masalasidir. Bu yerda o'zbeklar suvni bosh tomoniga o'rinishib, turkmanlar oyoq tomonida qolg'on, mana shu suv ustida bu ikki millat qonga botib asrlar bo'yi urushib keladirlar". Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, Turkiston o'lkasida Rossiya imperiyasi kirib kelgunga qadar ham aynan iqtisodiy asos hisoblangan yer va suv yerli xalqlar o'rtasida asosiy ziddiyat bo'lib kelgan.

Ko'p asrlar mobaynida iqtisodiy asos bo'lib xizmat qilib kelgan yer va shuv uchun hukmdorlar bir-birlari bilan doimiy urush holatida bo'lganlar, bu omil Turkiston yerlarini birlashtirish ishiga to'siq bo'lgan. Bu ko'p hollarda hukmdorlarning shaxsiy moddiy manfaatlarining soyasida qolib ketgan. Faqatgina arablar bosqini davrida (VII-VIII asrlarda) yerli hukmdorlar bir muddat birlashdilar. "Arablarning tajovuzi va taxribotlaridga yo'l qo'ymaslik uchun burun o'zaro nizolashib talashib yotqon hokimlar, ijtimoiy yasab ittifoq qilishadilar. Hammasi birlik ila arablarga qarshi turishga qaror qilishadi. Yerliklarning bu ittifoqi uzoq bormadi, foyda etmadi". Ammo bu ham uzoq cho'zilmaganligini yuqoridagi fikrlardan ko'rish mumkin. Undan so'ng IX-X asrlardagi Somoniylar, XIV-XV asrlardagi Temuriylar va ma'lum muddat XVI asrda Shayboniylar hukmronligi davrida bir muddat Turkiston birlashgan va o'z navbatida bu iqtisodiyotning rivojiga xizmat qilgan. Po'lat Soliyev o'sha yillari keng tus olgan savdo kapitalining hal etuvchi roli haqida M.N Pokrovskiy aqidalarni tan olib, savdo kapitali O'rta Osiyoda XII-XIII asrlarda paydo bo'lgan, Temuriylar davrida esa "kapital jamg'arish" boshlangan, deb uqtiradi, o'rta asr darveshlarini "savdo kapitali mafkurachilari" deb ataydi.

Aynan XVI asrdan keyin Turkistonda tarqoqlikka barham beruvchi vosita sifatida hukmdorlar dinni birinchi o'ringa qo'yganlar. Bu to'g'risida olim quyidagilarni yozadi. "Ulamo, eshon, xojalar xonni tashviqotchisi bo'lib xizmat etganlar va din ismidan nizolarni bitirishga tirishganlar. Xususan bu to'g'rida Buxoro birinchi o'rinda turadi va butun Turkistonni birlashtirishda o'zini markaz yasag'on; madrasa, jome', takya va xonaqohlar soldirib, Eron, Hindistondan olimlar keltirgan, Turkistonda din markaziyatni o'zida saqlab, shu din nomidan butun O'rta Osiyoga tashviqotchilar yetishtirgan. Shu madrasalarda O'rta Osiyoning har tomonidan keluvchi shogirdlar va Turkiston mamlakatining hamma joyidagi alloma, eshon va xo'jalarning barchalari Buxoro foydasiga chalishg'onlar. Lekin bularning hech birisi foyda qilmag'on. Manfaatlari turlicha bo'lg'on xalqlarni birlashtirishda dinning birligi kifoya qilmagan. Bu kurashlarni to'xtatadig'on faktor(omil) bo'la olmagan. Ul zamonlarda O'rta Osiyoda savdo kapitali o'sib yetmagan. G'oyat zaif bir holda, milliy jarayon, milliy ziyoli, milliy matbuot tug'diradig'on kuchli kapitalizm yo'q, millat nomidan bularni birlashtiraturg'on zamin yo'q. Faqat maydonda "din" bor, har narsa to'g'risida shu dinning yordamiga murojaat aytiladir, feodallar urushlarida "jihod" e'lon qilinadir va shuni vasiyat etiladir. Umuman kapitalizm o'smag'on va kuchaymagan mamlakatlarda diniy oqimg'ina bo'ladir, milliy jarayong'a zamin bo'lmaydir".

Po‘lat Soliyev Rossiya imperiyasi kirib kelgunga qadar Turkistondagi iqtisodiy holatning milliy jarayonlarga ko‘rsatgan salbiy oqibatlarini yuqridagi fikrlari bilan izohlaydi. Xonliklar davridagi iqtisodiy holatni esa tanqidan shunday ta’kidlaydi: “Milliy jarayonning o‘shishi uchun savdo kapitali kuchli bo‘lishi zarur, tinchlikni rivoji, mushkullarni oson qiladurg‘on temir va havo yo‘llarini bo‘lishi lozim; ammo: ul vaqtlardag‘i Turkistonda bunday narsalarning daragi ham yo‘q, Xiva, Buxoro, Qo‘qon kabi o‘lkalar o‘z daxllaridagina olish-berish qiladirlar, bu ham (tovar) holida bo‘lmasdan ko‘pincha tabiiy olish-berishdan iborat, xorijiy munosabatlar yo‘q darajada zaif, ikkinchi davlatlar bilan munosabatlari, olish-berishlari yo‘q darajada edi”.

XIX asrning 60-yillaridan boshlab, Chor Rossiyasining Turkistonni istilo qila boshlashi bilan bu o‘lkada yana bir kurash boshlanadi. Bu albatta avvalgililar kabi emas, kuchli texnika, savdo kapitali bilan qurollangan kurashdir. Rossiya bir tomondan o‘zining hadsiz hisobsiz muhojirlari bilan Turkistonning yer-suviga hujum qiladi, ikkinchi tomondan savdo kapitali bilan dehqonlarni o‘ziga qaram qilib qo‘yadi.

Asrlar davomida suv ustida o‘zbek-turkman, o‘zbek-tojik, yaylovlar uchun qirg‘iz-qozoq talashib kelgandi, endi bularning yoniga ruslar ham qo‘shilib masala yana ham og‘irlashadi. Xususan qirg‘izlar buni katta achchig‘ini tortdilar, qirg‘izning tog‘ oralari, qulay o‘rinlari rus muhojirlariga berildi. Turkmaniston va O‘zbekistonda ham eng yaxshi yerlar ruslarga berilib ko‘pincha suvning bosh tomonlariga joylashadilar. Shuning bilan asrlar bo‘yi cho‘zilib kelayotgan yer-suv kurashiga ruslar ham aralashib, bu kurashni, bu janjalni yana kuchaytirdilar.

Rossiya aholisi o‘zi bilan sanoat va sanoat mahsulotlarini olib keldi bu mahaliy aholining turmush sharoitini mushkul ahvolga solib qo‘ydi. “Savdo kapitali butun eskilikni yemiradi, tabiiy almashishlar, yerlik sanoatlar sindiriladir, bozorlarda to‘qimachik narsalari o‘rniga gazlama kirar va boshqa hamma narsalar o‘rniga Rusiyaning savdo-sanoat narsalari to‘lar edi. Dehqonning xo‘jalig‘i, tovar xo‘jalig‘ig‘a, savdo-sanoat narsalariga aylanar edi. Shuning natijasida dehqonning holi mushkullashib, kapitalistlarning quli darajasiga tusha borar edi”. Bu o‘rinda olim Rossiya kapitalining mahaliy aholi iqtisodiga qanday ta’sir qilganligini yozadi. Rossiya sanoati asosan paxtaga muhoj, busiz Rossiya fabrikalari rivojlanmas edi. Shu sababli yerli xalq vakillari o‘z yerlariga paxta ekishga va shundan ozroq daromad olishga harakat qiladilar ammo bu jarayon tobora Turkiston xalqini Rossiyaning qaramligiga tushib borishiga sabab bo‘ladi. Bu xususida quyidagicha keltiriladi: “Rusiya savdo kapitali o‘z yoniga yerlik kapitalistlarni tortadi, bonka va tijorat muassasalari orqali yordamlashadir, shuning orqasida, yerlik kapitalistlar ham o‘sadir, birgalashib dehqonning ustig‘a hujum qiladilar. Turkistonning dehqon va chorikori bir yoqdan yer-suv to‘g‘risida o‘ris muhojirlarining tazyiqi, ikkinchi tomondan savdo kapitalining qullig‘ig‘a tushira borishi kabi ikki o‘t ichida qoladir”.

Savdo kapitalining o‘shishi bilan Turkistondagi o‘zgarishlar quyidagicha xarakter kasb etadi. Birinchidan, savdo kapitali o‘sgan sari faqirchilik ham o‘sadi, yer-suvidan ajralgan dehqonning mayda sanoati yemiriladi. Ikkinchi tomondan kapitalizm maxsus shaxslar qo‘lida yig‘ila boradi: (Olim ular orasidan quyidagilarni sanab o‘tadi; Mirkomil, Ayozyboy, Ivanov, Torsin, Vodayev, Davidov, Pinxosov) kabilar. Uchinchi tomondan Rossiya savdo kapitalizmi soyasida o‘sgan yerlik kapitalistlar-

sarmoyadorlar boshqa kapitalistlar bilan bozor ustida, paxta maydonida kurashadilar, bular orasida raqobat o'sa boradi. Yerlik kapitalistlar butun bozorni o'z qo'llarida qoldirish, Turkiston dehqonini yolg'iz o'zlarigagina ushlab uchun tirishadilar. Lekin Rusiya kapitalistlariga g'alaba qilish imkoni ularning chet mamlakatlarda o'ttirgan tajribalari orqali o'sib boradi, chunki bular sarmoya jihatidan kuchli, hamda ularni himoya qiladigan askarlar, chor hukumatini shafqatsiz qora apparati bor. Albatta bular yerlik kapitalistlarga erk bermaydilar, raqobatda yerlik sarmoyadorlar mag'lubiyatga uchraydilar.

Ushbu holatni tahlil qilar ekan olim yana bir jihatga alohida to'xtalib o'tadi. Yangi paydo bo'lgan yerlik kapitalistlar Rossiya kapitalistlari bilan kurashda yerlik dehqonlar va asrlar davomida xalqning ongiga singib kelgan islom mafkurasiga tayanadilar. Dehqonning esa ular tomoniga o'tishida shubha yo'qdir. Chunki dehqon o'zining og'ir ahvolidagi Rossiya kapitalistlarini aybdor hisoblaydi va qulligining sababchisi sifatida ularni ko'radi.

Bu sababni olim shunday izohlaydi: "Urush muhojirlarining o'zining yer-suvini tortib olganini, eng yaxshi yerlari muhojirlar qo'liga ketganini, temir yo'l va bozorlarda yurg'anda shular tomonidan haqorat qilinganini juda yaxshi biladi. Shuning uchun hech narsaga qaramasdan milliy boylar tomoniga o'tadir va shunga majburdir. Shuning bilan birga savdo kapitalining o'sishi bilan barobar, ziyoli sinfi tug'iladi, milliy til, milliy adabiyot maydonga keladi; yerlik kapitalist boshqalarga qarshi kurashda ularni o'z foydasiga ishlatadi va o'z frontini shular vositasi bilan mustahkam qilishga tirishadi. Mazkur kapitalizm ideologiyasini targ'ibotchisiga aylanadilar.

Po'lat Soliyev Rossiya kapitalizmi Turkiston o'lkasiga yangicha iqtisodiy qarashlarni olib kelganini, uning natijasida yerli boy savdogarlar va kapital egalari shakllanganligini ta'kidlar ekan bu yurtning faqat rivojlanishi xizmat qilishi lozimligi g'oyasini ilgari suradi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida shakllangan yangicha iqtisodiy qarashlar Turkiston xalqlarining birlashuvi va yagona xalq bo'lib birlashishi zarurligi g'oyasini har qachongidan ham muhim ekanligini ko'rsatib qo'yganligi tahlillar natijasida ayon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES) CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

1. Анке Фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков. (XVIII-XIX вв), Алмати-2004, стр, 360,
2. Ахророва Х. Биринчи тарих фанлари доктори. // Халқ сўзи.2002 й.18 октябрь.
3. Муҳаммаджонов А. Яхё Фуломовни хотирлаб.Т.,2001.-Б.11.
4. Германов В.А. Ўзбек тарихчиларининг устози // Турон тарихи. (Тўплам). Т.,1993.-Б.23.
5. Гермонов В.А. Профессор Пулат Салиев и его время. Т.,2002.стр.37.
6. Солиев Пўлат. Узбекистан и Таджикистан. (Экономико-географический очерк). Т.,1926.
7. XX асрнинг дастлабки ўттиз йиллигида Ўзбекистонда тарих фани. (Тарихшунослик очерклари). 1-жилд . Т.:”Фан”1994.-Б.52.
8. Фуломов Я.Раҳмон Ҳабиб. Улкан тарихшунос // Ўқитувчилар газетаси.1967 й.11 май